

## YOSHLAR G‘OYAVIY TARBIYASI – YANGI O‘ZBEKISTONNING STRATEGIK OMILI SIFATIDA

Quvondiq Qodirov,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358786>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar g‘oyaviy tarbiyasining strategik ahamiyati yoritilgan. Unda oliy ta‘lim muassasalarining yoshlar ma‘naviy immunitetini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar va amaliy takliflar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar tarbiyasi, milliy g‘oya, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, g‘oyaviy immunitet, oliy ta‘lim, Yangi O‘zbekiston.

**Аннотация.** В статье рассматривается стратегическое значение идейно-воспитательной работы с молодежью в условиях Нового Узбекистана. Проанализирована роль высших учебных заведений в формировании духовного иммунитета молодежи, воспитании конкурентоспособных специалистов, преданных национальным и общечеловеческим ценностям. Также определены приоритетные задачи и практические рекомендации в рамках Концепции непрерывного духовного воспитания.

**Ключевые слова:** воспитание молодежи, национальная идея, духовно-просветительская работа, идейный иммунитет, высшее образование, Новый Узбекистан.

**Annotation.** This article highlights the strategic importance of ideological education of youth in the context of New Uzbekistan. It analyzes the role of higher education institutions in strengthening the spiritual immunity of young people and in training competitive specialists committed to national and universal values. The paper also outlines priority tasks and practical recommendations based on the Concept of Continuous Spiritual Education.

**Keywords:** youth education, national idea, spiritual and educational work, ideological immunity, higher education, New Uzbekistan.

**Kirish.** Mamlakatimizda ma‘naviyat, milliy g‘oya, ma‘naviy-axloqiy tarbiya kabi masalalar davlat siyosatining bosh masalasi sifatida ham eng ko‘p muhokama qilinayotgan mavzularga aylandi. Yoshlarning yaxlit dunyoqarashini shakllantirishda, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda ma‘naviy qadriyatlarning yetakchi rolini e‘tirof etish, bu o‘rinda esa mehribonlik, rahm-shafqat, vijdon, hamdardlik, saxiylik, mas‘uliyat kabi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar talabalarning terminal va instrumental kompetensiyalariga, ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga aylantirilmog‘i zarurligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yoshlar g‘oyaviy tarbiyasi masalasi so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va Murojaatnomalarida milliy g‘oya, ma‘naviyat va yoshlar tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi o‘rni alohida ta‘kidlangan. Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi” yoshlar tarbiyasini tizimli va uzviy tashkil etishning normativ-huquqiy asosini belgilab berdi. Shuningdek, mahalliy olimlar tomonidan oliy ta‘lim

tizimida talabalar ma'naviyatini yuksaltirish, g'oyaviy immunitetni mustahkamlashga oid ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilgan. Mazkur manbalar maqola mavzusini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, Prezident nutqlari va ilmiy manbalarni o'rganish orqali yoshlar g'oyaviy tarbiyasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida g'oyaviy-ma'naviy ishlarni takomillashtirishga doir amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlillar va natijalar.** Bugun mamlakatimiz o'z oldiga ezgu maqsadlar bilan «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» g'oyasi ila Renessansning uchinchi davri poydevorini yaratishga kirishdi. Bu esa bugungi yoshlar bilan bevosita ishlashadigan ta'lim-tarbiya muassasalarining barcha bo'g'inlarida faoliyat yuritayotgan mas'ullarga, jamoat tashkilotlari odimlariga hamda unib-o'sib kelayotgan yurtimizning ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarga juda katta talablarni qo'yimoqda.

Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari xodimlaridan har qachongidan ko'ra fidoiylikni, ko'proq o'qib izlanishlikni, bugungi golballashuv jarayonida yoshlarimizga haqiqiy ma'noda ustozlik qilib, to'g'ri yo'naltira olishlikni, eng asosiysi, hurmatli ustoz sifatida shaxsiy namuna bo'lishlikni talab qilmoqda.

Yoshlarimizdan esa, axborot, kommunikativ madaniyat, ijodiy, kreativ, innovasion rivojlanish qobiliyati, ish, kasbiy munosabatlar kompetensiyalarini va keskin raqobat talablariga javob berishni, o'zida tadbirkorlik va liderlik fazilatlarini bilan birga Vatanga sadoqat, mustahkam mafkuraviy immunitet va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni talab etmoqda. Zero azaliy milliy qadriyatlarni qadrsizlantiruvchi «ommaviy madaniyat», informasion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, ekstremizm, nigilizm, «dunyo fuqaroligi»ni (kosmopolitizm), missionerlik, prozelitizmni madh etuvchi saytlar, turli shoular, ko'ngilochar ko'rsatuvlar va musiqiy kanallar bugungi global va lokal ma'naviy hayotimizning ob'yektiv manzaralariga aylanmoqda.

Demakki, bu sharoitda oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi o'z ustuvorliklarini yoshlar ma'naviy ideallari, qadriyatlarini va g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan aniq axloqiy fazilatlar klasterini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Bu fazilatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida [1] belgilab berildi. Mazkur Konsepsiya uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar orasida tarbiya indikatori va kompetensiyalarini targ'ib qilish, tarbiya sohasini ilg'or innovasion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarning mustaqil hayotga Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan kirib borishini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarb ekanligidan kelib chiqib, 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi [2].

Prezident Sh.Mirziyoyev joriy yilning 19 yanvar kuni «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish» [3] masalalari bag‘ishlangan yig‘ilishida: «...bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, millatlar aro totuvligimizga rahna solib, norozilik kayfiyatlari avj oldirilmog‘da», - deb a’lohida ta’kidladilar.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari! Bugun dunyoda mana man degan eng buyuk davlatlar hayotining turli sohalarida, xususan, ma’naviy-madaniy hayotda yuz berayotgan inqiroziy jarayonlarga mutaxassislar tomonidan favqulodda holat deb, e’tirof qilinmoqda. Ya’ni, dunyoga mashhur siyosatchilar - G‘arb dunyosi halokot tomon borayotganligini qayg‘u bilan qayd etmoqdalar. Masalan, amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi P.J.Byukenening so‘ngi yillarda e’lon qilingan kitoblari sarlavhalarining nomlanishi hammani ogohlikka chorlaydi: masalan: «Buyuk xoinlik: Amerika suvereniteti va ijtimoiy adolat global iqtisodiyot tangrisiga qurbon etilgani haqida» (1998), «G‘arbning halokati: aholining kamayishi va muhojirlikning kuchayishi mamlakatimiz va tamaddunimizga qanday tahdid solmoqda?» (2001), «O‘nglarning so‘llarga aylanishi» (2004), «G‘arbning xalokati» kitoblarida AQSHda vujudga kelgan vaziyatni chuqur va atroflicha tahlil etar ekan, muallif o‘z yurtining tanazzulini, avvalo, madaniyatining yemirilayotganligini, azaliy urf odatlarning yo‘qalayotganligini, asrlar davomida e’zozlab kelingan qadriyatlarining toptalayotganligi bilan bog‘laydi va bunday ishlarning tepasida turgan «madaniy inqilobchilar»ni «zamonamiz tolibonlari», deb ataydi.

Darhaqiqat, yurtimizda yoshlar tarbiyasi, g‘oyaviy tarbiya masalasi Prezidentimiz rahbarligida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi: «Jahon tarixiga nazar salsak, dunyodagi eng rivojlangan beshtalikdagi har bir xalq, avvalo, ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Haqiqatdan ham, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir» [4].

Yaqinda bo'lib o'tgan yirik tadbirlar – davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi [5], O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi [6] hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi va bugungi g'oyaviy tarbiya yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Chunki bu borada yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko'p.

Afsuslar bo'lsinki, ayni bugungi kunda ham Milliy g'oyaning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, yoshlar tarbiyasi nechog'lik muhim bo'lib turgan bir paytda, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar, bu mening ishim emas, yoki mendan ketgancha egasiga yetgancha qabilida ish tutuvchi mas'ullar ham yo'q emas. Shu bois ham Prezidentimizning keyingi nutqlarida Oliy ta'lim muassasalari faoliyatidan norozilik kayfiyatilari, ta'lim muassasalari o'sha hududning har tomonlama ma'naviyat va madaniyat markazi bo'lolmayotganliklari, shuningdek, joylarda, oddiy aholi orasida davlat siyosatini olib borishda jonbozlik ko'rsatib, fidoiylilik bilan yondoshish o'rniga sustkashliklarga yo'l qo'yilayotganligini alohida ta'kidladilar.

Hammamizga ma'lumki, davlatimiz rahbari tomonidan: «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan», – deb bugungi mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasi belgilab berdilar.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida g'oyaviy tarbiyani modernizatsiyalash mamlakatimizda «Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» Davlat dasturida belgilangan jarayonlar bilan uyg'un bo'lishi talab etilmoqda [7]. Mana shunday yangi tarixiy vaziyatda «Yangi O'zbekistonni har tomonlama innovasion rivojlantirish uchun, 3-renessans poydevorini yaratishimiz uchun xalqimiz, yoshlarimizda qaysi fazilatlarini kuchaytirib, qaysi illatlarga chek qo'yishimiz kerak?» degan savollarga ilmiy javoblar kerak. Bu savollarga esa oliy ta'lim muassalarining ziyoli qatlami hamda ma'naviyat javob berishi va xalqimizni bunyodkor ishlarga da'vat qilishi lozimdir [7].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi taklif-tavsiyalarimizni berishni ma'qul topdik:

1. Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har qanday bo'g'indagi xodim, avvalo, yurtimizda hamda dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan voqealar mazmunidan xabardor bo'lishligi, voqea mohiyatini chuqur anglagan holda dars mashg'ulotlari davomida yoshlarimizga birinchilardan bo'lib to'g'ri va aniq yetkazish;

2. Yurtimizda ta'lim jarayoniga tadbiriq qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasining Oliy ta'lim tizimiga qo'yilgan talablarini to'laqonli ado etish;

3. Oliy ta'lim muassasalarining ijtimoliy-gumantar fanlar yo'nalishidagi kafedralar tomonidan o'qituvchilarning ishchi fan dasturlari va ma'ruza matnlari mazmunini yiliga bir marta emas, balki tizimli ravishda bugungi g'oyaviy islohotlar, yoshlar tarbiyasiga qo'yilayotgan talablar asnosida doimiy yangilab, boyitib borish;

4. Oliy ta'limning har qanday bo'g'indagi mas'uli Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan davlat siyosati nafaqat oliy ta'limda, balki mahallarda va boshqada birlashtirilgan o'rinlarda ham eng faol va tashabbuskor targ'ibotchisi bo'lishligi lozim.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida ta'kidlaymizki, bugungi davrning o'zi Respublikamiz oliy ta'lim muassasalariga Yangi O'zbekiston g'oyaviy mafkurasining drayveri sifatida bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda g'oyaviy tarbiya ishlarida ilgari qo'yilmagan yangi vazifani amalga oshirishni talab qilmoqda. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, endi ulardan ana shu oliy maqsadlarga yo'g'rilgan bunyodkor g'oyalar asosidagi bilimlarini hayotda qo'llay bilishni ham o'rgatishni talab etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori. 2019-yil 31-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 2020-yil 25-mart Qarori.
3. "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan. Xalq so'zi gazetasi, 2021-yil, 20-yanvar №13 (7793).
4. "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan. Xalq so'zi gazetasi, 2021-yil,20-yanvar №13 (7793).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil, 30-dekabr №276 (7778).
6. "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil, 25-dekabr №273 (7775).
7. Qodirov Q. Oliy ta'lim tizimida talabalar ma'naviyatini yuksaltirish – ustuvor masala sifatida. "Mug'allim ham uzluksiz bilimlendirio'" ilimiy-metodikaliq jurnal. Nukus., 2021., 1-son, – B.18.